

JIZZAX VILOYATI AHOLI PUNKTLARINI JOYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY-IJTIMOIIY OMILLARNING AHAMIYATI

A.Qodiriy nomidagi JDPI

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi

(geografiya) mutaxassisligi

2-bosqich magistranti:

Shamuratova Oltinoy Bekmamatovna

oltinoyshomuratova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Jizzax viloyati aholi punktlarini joylashtirilishi va rivojlantirilishidagi iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ahamiyati hamda ayrim hududiy muammolar, uning yechimi bo'yicha ba'zi taklif va mulohazalar keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: “Ilg'or hudud” sinov loyihasi, aholi, aholi punktlari, ishsizlik, infrastruktura, aholi ko'payishi, avtomagistral, joylanish va joylashtirish.

Аннотация. В статье рассматривается роль экономических и социальных факторов в размещении и развитии населенных пунктов Джизакской области, а также некоторые региональные проблемы, некоторые предложения и комментарии по их решению.

Ключевые слова: пилотный проект *Advanced Zone*, население, населенные пункты, безработица, инфраструктура, прирост населения, автомагистраль, расположение и размещение.

Annotation. The article discusses the role of economic and social factors in the location and development of settlements in Jizzakh region, as well as some regional problems, some suggestions and comments on its solution.

Key words: *Advanced Zone pilot project, population, settlements, unemployment, infrastructure, population growth, highway, location and placement.*

Ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional islohotlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning yangi modelini ishlab chiqish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jizzax viloyatini kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning samarali modelini ishlab chiqish to‘g‘risida” gi farmoni e‘lon qilingan edi. Farmonga muvofiq Jizzax viloyati hokimligining 2019-yil 1-martdan boshlab Jizzax viloyatida aholi turmush tarzini yaxshilashni nazarda tutuvchi **“Ilg‘or hudud” sinov loyihasini** (keyingi o‘rinlarda – sinov loyiha) amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi. Ushbu farmon va uning asosida o‘tkazilgan tadbirlar viloyatda aholi punktlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda yangi bosqichni boshlab beradi. Aholi punktlari va ularda istiqomat qiluvchi aholining xo‘jalik tarzi, hamda yashash darajasini o‘zgartirish, aholi hayoti bilan tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish tarzining muvofiqligiga to‘la erishish bu bosqichning asosiy maqsadi bo‘lib qolishi lozim.

Iqtisodiy omil aholi punktlarini tashkil etish va rivojlantirishda hal qiluvchi ro‘llardan birini egallaydi. Masalan resurs omilini oladigan bo‘lsak, ayrim aholi punktlari ma‘lum bir mineral resurslari negizida tashkil topadi. Jizzax viloyatidagi Marjonbuloq (oltin), Egizbuloq (qum shag‘al) va Qo‘ytosh (volfram) kabi aholi manzillarini shunday aholi punktlari qatoriga kiritamiz. Ma‘lum vaqt o‘tgach, resurs tugab qolsa va shu resursga tayanib turgan bir qancha sanoat korxonalarining faoliyati to‘xtab qolsa, bu holat albatda hudud rivoji uchun salbiy holatni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga yaqqol misol qilib mamlakatimizdagi Angren shahrini ko‘rsatish mumkin. Mazkur shahar qo‘ng‘ir ko‘mir koni negizida tez rivojlandi va ko‘plab aholini o‘ziga jalb qila boshladi. Ko‘mir qazib olinishining biroz kamayishi, unga bog‘liq bir qancha korxonalarda ishlab chiqarish quvvatining pasayishi va aholi soni keskin ortib ketishi natijasida

shaharda ishsizlik darajasi keskin ko'paydi, natijada ko'plab aholi yana boshqa joyga ko'chib ketishga majbur bo'ldi.

Viloyatimizdagi Marjonbuloq aholi punkti Nurota tog' tizmasining G'o'bdintog' etaklarida joylashgan shahar bo'lib 1980-yil Marjonbuloq oltin koni negizida paydo bo'lgan shahar hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur shahar aholisi iqtisodiy faoliyati mazkur kon faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Viloyatimizning Forish tumanida joylashgan Egizbuloq aholi punktida yaqinda tabiiy qum-shag'al konidan iqtisodiyotda foydalanish maqsadida Xitoy davlatidan zamonaviy asbob uskunalar keltirilib, yangi zavod ishga tushurildi. Kelajakda mazkur aholi punkti tog' kon sanoati negizida iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlanishi mumkin.

Viloyat aholi punktlarining geografik joylashuvida transport tizimining ahamiyati katta. Transport iqtisodiyotning qon tomiri bo'lgani kabi aholi manzillarining rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Transport qulay bo'lgan kichik aholi punktlari juda tezlik bilan o'sa boshlaydi. Unda turli xil xizmat ko'rsatish sohalari va infrastruktura rivojlanadi. Ayniqsa ikki yirik shahar orasidagi aholi punktlari tez o'sadi. Bunaqa toifaga viloyatimizdagi G'allaorol, Navoiy viloyatidagi Qiziltepa hamda Sirdaryo kabi shaharlarni misol qilishimiz mumkin. Jizzax viloyatida transport tarmog'i avtomobil va temir yo'l yo'nalishlaridan iborat bo'lib, bu yo'nalishlarning shakllanishi hududiy harakterga egadir. Viloyatimiz hududidan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Katta O'zbek trakti avtomagistrali, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Jizzax-Qo'qon avtomobil yo'li shuningdek Toshkent- Turkmanboshi xalqaro temir yo'li o'tgan. Bu yo'llarning viloyat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida ahamiyati juda katta bo'lib, viloyat aholi punktlarining hududiy tarkib topishida, aholi turmush tarzining rivojlanishida hamda viloyat xo'jaligining rivojlanishida o'ziga hos o'rin tutadi. E'tiborli tomoni shundaki, viloyat markazi bo'lgan Jizzax shahridan sanoatlashgan va sanoatlashish imkoni yuqori bo'lgan hududlarga har ikkala transport vositasida bog'lanish mavjud. Bu esa o'z navbatida sanoatning turli tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Aholi punktlarini joylashtirishda yana eng muhim omillardan biri bu “yangi korxonalarni joylashtirish” omili hisoblanadi. Joylashtirilishi kerak boʻlgan yangi korxonalar uning hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turli joyda joylashtirilishi mumkin. Agar korxonalar yengil sanoat, oziq –ovqat sanoati yoki toʻqimachilik korxonasi boʻlsa uni aholi soni koʻp, ishsizlik darajasi yuqori boʻlgan aholi manzillarida joylashtirish maqsadga muvofiq. Bunday aholi punktlariga Doʻstlik, Paxtakor, Zarbdor va Gʻallaorol kabi aholi gavjum, aholisi tarkibida ishsizlar soni koʻp boʻlgan tuman markazlarini misol qilishimiz mumkin. Ekologiyaga salbiy taʼsir koʻrsatadigan katta maydonni egallaydigan va ogʻir sanoat korxonalarini esa imkon qadar yirik shaharlardan uzoqroqda, foydalanishga yaroqsiz yerlarda tashkil qilish kerak. Bugungi kunda viloyatimizda juda katta bosh turgan yerlar, juda katta tabiiy resurs salohiyatiga ega boʻlgan aholi punktlari yoʻq emas. Ulardan toʻgʻri va maqsadli foydalanish muhim. Soʻngi yillarda Jizzax viloyatida bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan: Yangi ohak zavodining Forish tumaniga koʻchirilishi, atom elektro stansiyasining qurilishi va hakazo. Lekin bu kabi ishlarning barchasi muvaffaqiyatli yakun topavermaydi. Viloyatimizning Zafarobod tumanida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” ochiq aksiyadorlik jamiyati tarkibida qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan “Jizzax sement zavodi” ish boshlashi bilan yurtimizda mazkur mahsulotni ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortdi. Bugungi kunda korxonada bir yilda 350 ming tonna oq va 760 ming tonna portland sement ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotning maʼlum qismi qoʻshni davlatlarga eksport qilinmoqda. Zavodda 400 nafardan ziyod hamyurtimizning bandligi taʼminlangan. Bu kabi ijobiy holatlar yaxshi albatta. Lekin, zavod atrofida joylashgan Oq-tom qishloq aholi punktida istiqomat qiladigan aholining aytishicha, keyingi besh oy davomida zavodda tozalash uskunalari ishlamasada zavod ishlab turgani uchun atrofdagi qishloqlar va choʻponlar juda katta zarar koʻrishmoqda. Xususan, qoʻylar ohak kukuni va sement tushgan oʻt-oʻlan va yantoqni yeyishi natijasida oʻtlab yurganida yoki gʻoʻrada oʻlib qolmoqda. Qishloqlarda badboʻy havodan nafas olishning imkoni boʻlmayapti. Poliz va

boshqa ekinlar soʻlib qolmoqda. Bu esa oʻz navbatida zavod faoliyatini qattiq nazoratga olish muhimligini koʻrsatadi. Yaqin kunlarda AQSH davlatining «Alfa Eco Corporation» MCHJ toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyash fondiga ega boʻlgan xususiy biznes tashkiloti tomonidan Jizzax viloyatining Zafarobod, Forish, Baxmal tumanlarining birida huddi shunday sement zavodlaridan yana biri ishga tushurilishi rejalashtirilgan. Mazkur zavodni joylashtirishda iqtisodiy-ijtimoiy omillarga eʼtibor berib, tegishli mutahassislar bilan hamkorlikda ishni amalga oshirish kerak.

Maʼlumki ijtimoiy faoliyatda aholi punktlarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki ijtimoiy sohalar rivoji boʻyicha shahar va qishloqlarda katta tafovut sezilib turadi. Zero ijtimoiy soha shahar aholi manzilgohlarida koʻp tarmoqli va murakkab koʻrinishga ega boʻladi va shaharlar rivoji uchun munosib hissa qoʻsha oladi. Ijtimoiy omillar ichida aholi punktlarining joylashtirilishida va rivojlantirilishida xizmat koʻrsatish, fan-taʼlim, sogʻliqni saqlash va ishchi kuchi omillari muhim hisoblanadi. Aynan “xizmat koʻrsatish sohasi” hozirgi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan tarmoq boʻlib, ayrim mamlakatlarning asosiy YIM ni bermoqda. Bu tarmoqning ahamiyati shahar aholi punktida, ayniqsa, oshadi. Chunki bir qancha xizmat koʻrsatish sohalarini shahar hududida kompleks holda joylashgan boʻladi va aholiga bir muncha qulaylik yaratadi. Xizmat koʻrsatish sohalarini Jizzax, Zomin, Gagarin va Gʻallaorol kabi shaharlar hududida rivojlantirish, yuqorida aytib oʻtilgandek ekalogik toza boʻlmagan va ogʻir sanoatni siqib chiqaradi va shaharni iqtisodiy jihatdan postindustrial darajaga chiqishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, viloyatimiz aholi punktlarini yuqorida koʻrib oʻtilgan bir qancha iqtisodiy va ijtimoiy omillar asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Aholining koʻpayishi va ijtimoiy psixologik ongining yuksalishi, borgan sari yangi-yangi aholi punktlarining paydo boʻlishiga, unda turli xil muammolar va tartibsizliklar kelib chiqishiga sabab boʻladi. Shunday ekan, endi tashkil etilayotgan aholi punktlarini uzoq yillik reja asosida qurishni tashkil etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "Jizzax viloyatini kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning samarali modelini ishlab chiqish to'g'risida". 11.01.2019-6887
- 2.** Soliyev A. va b."O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi". T-2011.